

LAYLO RAUPOVA



**BADIIY VA SAN'AT
ASARLARIDA MADANIY
NUTQ ORQALI MILLIY MENTAL
OMILLARNING IFODALANISHI**

O‘ZBEKISTON BADI‘Y AKADEMIYASI

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK
VA DIZAYN INSTITUTI**

L.Raupova

**BADI‘Y VA SAN‘AT ASARLARIDA MADANIY
NUTQ ORQALI MILLIY MENTAL
OMILLARNING IFODALANISHI**

*Tasviriy va amaliy san‘atga ixtisoslashgan o‘quv yurtlari uchun
“Nutq madaniyati” fanidan monografiya*

**“Badiiy, san‘at asarlari talqini va unda madaniy nutq rolini
kuchaytirish asosida yoshlar dunyoqarashiga milliy mental omillarni
singdirish” loyihasi doirasida**

Toshkent

“INNOVATSIYA-ZIYO”

2019

UDK: 8
BBK:80
R-28

Raupova Laylo

Badiiy va san'at asarlarida madaniy nutq orqali milliy mental omillarning ifodalanishi/monografiya/ Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2019, 118 b.

Taqrizchilar:

M.Saparniyozova – ToshDO'TAU, "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida o'qituvchisi, f.f.n., dots.
R.Fatxullayev – MRDI, "Tasviriy san'at tarixi va nazariyasi" kafedrasida dotsenti, s.f.n

O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar agentligining BA-1-023 – "Badiiy, san'at asarlari talqini va unda madaniy nutq rolini kuchaytirish asosida yoshlar dunyoqarashiga milliy mental omillarni singdirish" amaliy tadqiqoti doirasida ta'lim tizimida yoshlar dunyoqarashini takomillashtirish, ularda madaniy nutq estetikasini, badiiy va san'at asarlari orqali milliy qadriyatlarini shakllantirish uchun muhim manba sifatida nashrga tayyorlandi. Monografiya oliy o'quv yurti o'qituvchilari, talabalari va erkin kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Монографія Камолiddин Бехзод номидagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Kenzamu qurupi bilan raupova masnua nashri

ISBN 978-9943-5868-9-5

© Raupova L., 2019
© "INNOVATSIYA-ZIYO", 2019

KIRISH

Bugungi kunda o'zbek tili, adabiyoti, san'ati sohasida talaygina muammolar chuqur va atroflicha tadqiq qilindi, xususan, o'zbek tili va uning adabiy me'yorlari mukammal holatga keldi. Bu o'zbek tilshunosligi fanining o'tgan asrdagi ulkan yutuqidir. Adabiy til me'yorlari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib bordi. Ta'lim, nashriyot-matbaa, radio-televideaniye, matbuot va ish yuritish sohaslarida o'zbek adabiy tilining me'yorlariga rioya qilish barqarorlashdi. Ayni paytda adabiy til me'yorlariga rioya qilishning sifat bosqichi ketmoqda. Maktab bosqichidan oliy ta'limgacha nutq madaniyati kursi o'tilishining takomillashtirish fikrimizning dalilidir. Ayniqsa, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirdi.

O'zligimizni anglashda qulug' qidamlardan biri bo'lgan va qabul qilinganiga chorak asrdan oshayotgan "Davlat tili haqida"gi Qonunning o'tgan davrda bergan ulkan natijalari va samarasini tafakkur chig'irig'idan o'tkazsak, ularni bema'nat asrlarga tatigulik yutuqlar deb aytish mumkin. Ushbu Qonun millatimiz ko'rki, ma'naviy-madaniy xazinasi bo'lgan ona tilimizni haqorat botqog'idan, "oila tili" darajasidan jahon minbarida jaranglaydigan, unda bitilgan Davlat madhiyasi esa xalqaro rasmiy marosimlarda yangraydigan, internet veb-saytlarini bezaydigan til, uni rivojlangan davlatlarning mutaxassislari o'z ixtiyorlari bilan qiziqib o'rganadigan rang-barang boyliklar xazinasining kaliti darajasiga ko'tardi.

Tilga davlat tili yoki rasmiy til maqomining berilishi uni yo'qolish xavfidan xalos qiladi. Milliy tilning inqirozi esa milliy ma'naviyatning, milliy o'zlikning barbod bo'lishi demakdir. Rus generali Skobelov: "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning tilini, madaniyatini yo'qotsang bas. Tez orada o'zi tanazzulga yuz tutadi" deya ta'kidlaganida, mutlaqo haq edi. Darhaqiqat, tilning rasmiy maqomi millat yoki xalq uchun juda ulkan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarixiy, huquqiy ahamiyatga molik masala. Chunki rasmiy til til sohiblarining milliy-ma'naviy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Shu ma'noda milliy yaxlitlikka erishish, vatandarparvarlik milliy tilga e'tibordan boshlanishi bejiz emas. XIX asrda yashagan fransuz olimi M.Bellin hazrat Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug' alayn" kitobidagi "Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz" degan hikmatli